

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH TIZIMI

Ibragimov G 'anijon G'ayratovich

Ilmiy rahbar: Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markaziboshlig'i
-Innovatsion Menejment kafedrasi dotsenti Phd,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, g.ibragimov@tsue.uz

Axmadaliyev Shohruhmirzo Faxriddin o'g'li
TDIU "Menejment fakulteti" KB-61 guruh talabasi
sh.akhmadaliyev@tsue.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17480550>

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida ma'lumotlarni oshkor qilish tizimi bo'yicha nazariy asoslar, amaldagi qonunchilik me'yorlari va amaliy tahlillar yoritib beriladi. Maqolada korporativ boshqaruvda oshkoralik tamoyilining ahamiyati, axborotni taqdim etish shakllari va ularning investorlar ishonchi hamda bozor barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida ma'lumotlarni oshkor qilishning hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni takomillashtirish yo'nalishlari amaliy misollar asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, axborot siyosati, axborot assimetriyasi, moliyaviy hisobot, emitent, fond birjasi, ma'lumotlar xavfsizligi, ESG

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы системы раскрытия информации в акционерных обществах, действующие законодательные нормы и практический анализ. В статье анализируется значение принципа прозрачности в корпоративном управлении, формы представления информации и их влияние на доверие инвесторов и стабильность рынка. Также на основе практических примеров рассматривается текущее состояние раскрытия информации в акционерных обществах Республики Узбекистан, существующие проблемы и направления их совершенствования.

Ключевые слова: корпоративное управление, информационная политика, асимметрия информации, финансовая отчетность, эмитент, фондовая биржа, безопасность данных, ESG

Abstract. This article covers the theoretical foundations of information disclosure systems in joint-stock companies, current legislative norms, and practical analyses. The article analyzes the importance of the principle of transparency in corporate governance, the forms of information provision, and their impact on investor confidence and market stability. Also, based on

practical examples, the current state of information disclosure in joint-stock companies of the Republic of Uzbekistan, existing problems, and directions for their improvement are considered.

Keywords: corporate governance, information policy, information asymmetry, financial reporting, issuer, stock exchange, data security, ESG

Ma'lumotlarni oshkor qilish tizimi - korporativ boshqaruv nazariyasining markaziy tamoyillaridan biri hisoblanadi. U kompaniya faoliyati haqida manfaatdor tomonlarga — aksiyadorlar, investorlar, davlat organlari, hamkorlar va jamoatchilikka — to'liq, aniq va o'z vaqtida axborot yetkazib berish tizimi sifatida talqin etiladi. Bu tizimning nazariy ahamiyati shundaki, u korporativ boshqaruv mexanizmlarining asosini tashkil etuvchi shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlik tamoyillarini amaliy shaklda ro'yobga chiqaradi. Korporativ boshqaruvda oshkoralik tushunchasi bir necha nazariy konsepsiyalar orqali izohlanadi. Eng ko'p qo'llaniladiganlardan biri bu agentlik nazariyasi bo'lib, u aksiyadorlar va menejerlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini tushuntiradi. Ushbu nazariyaga ko'ra, menejerlar kompaniya egalarining manfaatlarini emas, balki ko'pincha o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qaror qabul qilishlari mumkin. Shu sababli, oshkoralik tizimi - axborotni muntazam e'lon qilish, auditdan o'tkazish va hisobotlar taqdim etish orqali agentlik muammosini kamaytiradi va rahbariyatning javobgarligini oshiradi. Ikkinchi muhim yondashuv bu manfaatdor tomonlar nazariyasi bo'lib, u korxonaning faqat aksiyadorlar oldidagi emas, balki barcha manfaatdor tomonlar (ishchilar, mijozlar, hamkorlar, davlat, jamiyat va atrof-muhit) oldidagi majburiyatlarini ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, oshkoralik tizimi korxonaning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi, chunki e'lon qilinayotgan ma'lumotlar iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmay, ekologik, ijtimoiy va boshqaruvga oid (ESG) jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Uchinchi yondashuv — institutsional nazariya bo'lib, u korxonaning faoliyatining ijtimoiy va me'yoriy muhit bilan uyg'unlashuvini asoslaydi. Bu nazariyaga ko'ra, korxonalar faqat iqtisodiy manfaatlarini emas, balki qonunchilik, ijtimoiy qadriyatlar va xalqaro me'yorlar talablarini ham bajarishi zarur. Shu sababli, ma'lumotlarni oshkor qilish tizimi kompaniyaning ijtimoiy qonuniyatlarga moslashuv darajasini ko'rsatuvchi indikator sifatida namoyon bo'ladi.

Qonunchilik asoslari

O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish jarayonida ma'lumotlarni oshkor qilish tizimi davlat iqtisodiyotida shaffoflikni ta'minlash va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim



mexanizmdir. Ushbu tizimning huquqiy poydevori mustaqillik yillarida shakllangan milliy qonunlar, kodekslar, hukumat qarorlari hamda xalqaro standartlarga asoslangan normativ hujjatlar orqali mustahkamlangan. Bu yondashuv mamlakatda korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, korxonalarining javobgarligini oshirish va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ishonchni kuchaytirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida ma'lumotlarni oshkor qilish tizimining asosiy huquqiy manbasi bu "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-370, 2014-yil 6-may) hisoblanadi. Ushbu qonun korporativ boshqaruvning poydevorini belgilab, aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini ochiq, hisobdor va shaffof yuritishni majburiyat sifatida belgilaydi. Qonunning tegishli moddalari jamiyat rahbariyatiga moliyaviy hisobotlarni yuritish, yillik hisobotlarni tayyorlash, mustaqil auditorlik tekshiruvdan o'tkazish va natijalarni manfaatdor tomonlarga o'z vaqtida taqdim etish majburiyatini yuklaydi.

Ma'lumotlarni oshkor qilish sohasini tartibga soluvchi navbatdagi muhim hujjat bu "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-387, 2015-yil 3-iyun) bo'lib, u emitentlarning (aksiyadorlik jamiyatlari) axborot berish majburiyatlarini aniq belgilaydi. Ushbu qonunga muvofiq, har bir emitent o'z faoliyatining moliyaviy natijalari, ishlab chiqarish hajmi, rahbariyat tarkibi, filiallari va sho'ba korxonalari, shuningdek, aksiyalar va dividend siyosati to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam e'lon qilib borishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagi 176-son qaroriga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytida majburiy ravishda joylashtirilishi lozim bo'lgan axborot turlari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, jamiyat veb-saytida quyidagi ma'lumotlar e'lon qilinishi shart: jamiyat faoliyatining predmeti va maqsadlari; jamiyat ustavi, unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda tasdiqlangan biznes-rejalari; jamiyatni rivojlantirish strategiyasi; tashkiliy tuzilmasi, tarkibiy bo'linmalari, filiallari, vakolatxonalari, shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning manzillari va aloqa vositalari; jamiyat rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar; bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari va nomzodlarga qo'yiladigan talablar; jamiyat boshqaruv organlari tomonidan tuzilgan kollegial va maslahat organlari haqidagi ma'lumotlar; affillangan shaxslar ro'yxati; korporativ boshqaruv masalalari bo'yicha ichki hujjatlar, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan korporativ boshqaruv kodeksi.

O'zbekiston Respublikasida korporativ oshkoralikni huquqiy jihatdan mustahkamlovchi yana bir muhim hujjat bu — Korporativ boshqaruv kodeksi (Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishining 2015 yil 31 dekabrda 9-son bayonnomasi) hisoblanadi. Mazkur kodeks xalqaro miqyosda tan olingan OECD korporativ boshqaruv tamoyillariga moslashtirilgan bo'lib, unda oshkoralik, hisobdorlik va javobgarlik korporativ boshqaruvning asosiy elementlari sifatida belgilangan. Kodeksning 12–14-bandlari aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyat ochiqligini ta'minlash majburiyatini belgilaydi, 31-band esa moliyaviy hisobotlarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida tayyorlanishini talab qiladi. Kodeksda shuningdek, har bir jamiyat o'zining "Axborot siyosati to'g'risida" nizomini ishlab chiqishi kerakligini takidlanadi.

Davlat korxonalarini faoliyatining shaffofligini ta'minlashda Toshkent Respublika fond birjasi (RFB)ning me'yoriy hujjatlari ham alohida o'rin tutadi. "Birja kotirovkalash varag'i to'g'risidagi nizom"da fond birjasida ro'yxatga olingan kompaniyalar tomonidan oshkor etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar turlari aniq belgilab qo'yilgan. Ular qatoriga erkin muomaladagi aksiyalar ulushi, yirik moliyaviy bitimlar, kreditlar, sud da'volari, strategik yo'nalishlardagi o'zgarishlar, dividend siyosati va korporativ boshqaruv kodeksiga rioya etilishi to'g'risidagi hisobotlar kiradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston qonunchiligi xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirilgan. Xususan, MHXS moliyaviy hisobotlarning taqqoslanadigan va shaffof shaklda tayyorlanishini ta'minlaydi. IHTT tamoyillari oshkoralik va javobgarlikni global boshqaruv madaniyatining ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korporativ boshqaruv prinsiplariga ko'ra "Korporativ boshqaruv infratuzilmasi korporatsiya faoliyatiga daxldor barcha muhim masalalar, jumladan mulkchilik va kompaniya boshqaruvi, faoliyat natijalari, moliyaviy holat bo'yicha axborotlarni o'z vaqtida va to'liq oshkor qilinishini ta'minlashi shart"¹. Ma'lumotlarni oshkor qilish tizimining qonunchilik asoslari O'zbekiston korporativ boshqaruv tizimining huquqiy negizini tashkil etadi. U nafaqat moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi, balki korrupsiyaga qarshi kurash, davlat mulkidan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, oshkoralik tizimining qonuniy asoslari

¹ OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development), G20/OECD Principles of Corporate Governance, 2015.

mamlakatda davlat korxonalarining ishonchliligi, javobgarligi va ijtimoiy legitimligini ta'minlaydigan asosiy mexanizmdir. Bu esa O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida, xususan, davlat sektorida ochiqlikni va samaradorlikni oshirishning strategik kafolatidir.

Kompaniya tomonidan axborotlarning oshkor etilishi va tarqatilishi quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

- korporativ axborotlar yagona portali (www.openinfo.uz);
- fond birjasining rasmiy veb-sayti (www.uzse.uz);
- aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-sayti;
- ommaviy axborot vositalari (OAV);
- internet portallarida joylashtirish;
- bosma nashrlarda chop etish;

- manfaatdor shaxslar bilan axborot seminarlari va boshqa turdagi uchrashuvlarni tashkil etish; (shu jumladan, telekonferentsiyalar, veb-translyatsiyalar, veb-kastlar);

- amaldagi qonunchilik, kompaniya Ustavi va kompaniya ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq aksiyadorlarga axborotlar va ularning talabiga binoan hujjatlar nusxalarini taqdim etish;

- amaldagi qonunchilik, kompaniya Ustavi, kompaniya ichki me'yoriy hujjatlari va kompaniyaning Boshqaruv organlari qarorlariga muvofiq kommunikatsion vositalardan foydalangan holda boshqa yo'llar bilan mazkur Nizomda nazarda tutilgan axborotlarni oshkor etish.²

Tahlil natijalari

Tahlilda 2025-yil holatiga ko'ra Openinfo.uz portalida e'lon qilingan ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MCHJ) tomonidan oshkor qilingan axborotlar berilgan.

1- Jadval

Ko'rsatkich nomi	AJ	MCHJ
Barcha Emitentlar Soni	700	35
Jami oshkor qilingan axborotlar soni	6718	97
Muhim faktlar	5254	54
Emissiya risolalari	5	0

² Zamonaviy korporativ boshqaruv: Darslik / S.E. Elmirzayev; – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 416 b.



Chorak hisobotlar	943	0
Yillik hisobotlar	428	0
Ustavlar	221	5

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) tomonidan ma'lumotlarni oshkor qilish darajasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga (MCHJ) nisbatan ancha yuqori. Xususan, 700 ta AJ jami 6718 ta axborotni, 35 ta MCHJ esa atigi 97 ta axborotni oshkor qilgan. Eng ko'p oshkor qilingan ma'lumot turi — muhim faktlar bo'lib, ular AJlar kesimida 5254 tani tashkil etadi, bu esa korporativ boshqaruvda shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Chorak (943 ta) va yillik hisobotlar (428 ta) ham muhim axborot turlaridan biri sifatida AJlarda nisbatan muntazam taqdim etilmoqda, biroq MCHJlarda bu ko'rsatkichlar nolga teng. Shuningdek, ustavlar (221 ta AJ va 5 ta MCHJ) bo'yicha ham ma'lumotlar oshkor qilingan bo'lsa-da, bu yo'nalishda ham MCHJlarda shaffoflik past darajada qolmoqda.

Xulosa

Umuman olganda, ma'lumotlarni oshkor qilish tizimi O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida shakllanib, so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Ushbu tizim kompaniyalar faoliyatining shaffofligini ta'minlash, manfaatdor tomonlar — aksiyadorlar, investorlar, davlat organlari va jamoatchilik o'rtasida ishonch muhitini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Qonunchilik bazasining takomillashuvi, xususan "Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida"gi Qonun, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun hamda Korporativ boshqaruv kodeksining amaliy joriy etilishi korporativ oshkoralikni huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ma'lumotlarni oshkor qilish darajasi yuqori bo'lib, ular korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari — shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlikni amalda qo'llab kelmoqda. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda esa bu jarayon nisbatan sust kechmoqda, bu esa axborot siyosati va boshqaruv madaniyatini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Ma'lumotlarni oshkor qilish tizimi O'zbekiston iqtisodiyotida korporativ boshqaruvning barqaror va ishonchli modelini shakllantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, investitsion muhitni yaxshilash hamda davlat mulkidan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir. Shu bois, ushbu tizimni yanada rivojlantirish,



uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda oshkoralik madaniyatini keng targ'ib etish mamlakatda korporativ boshqaruvni yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Korporativ boshqaruv kodeksi, 2015-yil
- 2.O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2014-yil 6-may.
- 3.O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni. 2015-yil 3-iyun.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2014-yil 2-iyul.
- 5.Toshkent Respublika fond birjasi "Birja kotirovkalash varag'i to'g'risidagi" nizomi.
- 6.OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development), G20/OECD Principles of Corporate Governance, 2015.
- 7.Zamonaviy korporativ boshqaruv: Darslik / S.E. Elmirzayev; - T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 416 b.
- 8.<https://new.openinfo.uz/organizations>

